

**SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



# **SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI**



**2022- YIL  
YANVAR-NOYABR**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmi – 20 617,9 mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik  
biznesning ulushi – 67,9 %

## XIZMATLAR SOHASI

Xizmatlar sohasidagi korxonalar  
va tashkilotlarning ulushi – 69,0 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi – 5 074,6 ming so'm

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmatlar sohasi salmoqli o'ringa ega. O'zbekistonda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri, uchinchi darajali sektor – xizmatlar sohasi hisoblanadi.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 069,9** mlrd. so'mga oshib, **20 617,9** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021-yilning yanvar-noyabr oylariga (**122,1 %**) nisbatan o'sish sur'ati **115,2 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi **28,1 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (**23,5 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,0 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha (**5,2 %**) shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**4,7 %**) ham qayd etildi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4 %** ga yetdi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**  
*(2022- yil yanvar-noyabr)*



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-noyabr)	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2021- y. <sup>1)</sup>	2022- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>16 548,0</b>	<b>20 617,9</b>	<b>115,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	759,0	959,8	125,6
Moliyaviy xizmatlar	2 387,1	3 306,4	135,6
Transport xizmatlari	4 177,1	4 844,4	109,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3 929,5	4 588,4	109,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	567,3	772,6	115,3
Savdo xizmatlari	4 648,9	5 800,8	111,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	422,5	513,4	113,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	891,6	1 069,3	111,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	338,5	432,3	115,5
Ijara xizmatlari	497,3	600,8	113,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	499,0	608,1	109,5
Shaxsiy xizmatlar	688,9	904,6	111,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	292,0	297,9	95,5
Boshqa xizmatlar	378,8	507,5	122,5


<sup>1)</sup> Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

**Savdo xizmatlari**  
(yanvar-noyabr)




2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi

**O'sish sur'ati, % da**




**Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**



**Savdo xizmatlarining tarkibi, % da**  
(2022-yil yanvar-noyabr)


1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar.
2. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari).
3. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda.




**Transport  
xizmatlari**  
*(yanvar-noyabr)*

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **4 844,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan bu xizmat turining o‘shishi **9,0 %** ni tashkil etdi.

*O‘shish  
sur‘ati, % da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so‘m*



Transport xizmatlari hajmining o‘shishi, yuk va yo‘lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog‘ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq.

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 588,4** mlrd. so'mga yetdi.


2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar **9,6** % ga o'sdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **22,3** % ni tashkil etdi.

**Tashish turlari bo'yicha  
avtomobil transporti xizmatlarining  
tarkibi, % da**




**Avtomobil transporti  
xizmatlari  
(yanvar-noyabr)**

**O'sish  
sur'ati, % da**




**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**




**Moliyaviy xizmatlar**  
*(yanvar-noyabr)*

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **919,3** mlrd. soʻmga oshdi va **3 306,4** mlrd. soʻmga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **16,0** % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʼati **135,6** % ni tashkil etdi.

**Oʻsish surʼati,  
% da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. soʻm**



**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da**  
*(2022-yil yanvar-noyabr)*



**Sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar**

**Sugʻurta boʻyicha xizmatlar**


**Yordamchi moliyaviy faoliyat**




**Aloqa va  
axborotlashtirish  
xizmatlari**  
*(yanvar-noyabr)*

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **959,8** mlrd. so‘m darajasida qayd etildi va 2021- yilning yanvar-noyabriga nisbatan o‘shish sur‘ati **125,6** % ni tashkil etdi.


*O‘shish sur‘ati,  
% da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so‘m*




*Aloqa va axborotlashtirish  
xizmatlarining tarkibi, % da*  
*(2022- yil yanvar-noyabr)*




- Axborot xizmatlari
- Boshqa xizmatlar
- Kompyuterda dasturlashtirish bo‘yicha xizmatlar
- Telekommunikatsiya xizmatlari

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-noyabr)

**O'sish sur'ati,  
% da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**




2022- yil yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 069,3** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,2** % ini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish sur'ati **111,5** % ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-noyabrda xizmatlar hajmi **891,6** mlrd. so'mni tashkil etgan. 2020- yilga nisbatan esa **27,8** % ga o'sish qayd etilgan.




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-noyabr)

O'sish sur'ati,  
% da



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm



2022- yil yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **432,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.


2021- yilning yanvar-noyabriga nisbatan o'sish sur'ati **115,5** % ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmatlar hajmi **338,5** mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining **2,0** % ini tashkil etgan.




## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar *(yanvar-noyabr)*

*O'sish sur'ati,  
% da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.




<b>Hududlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-noyabr)</b>	<b>Hajm, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>20 617,9</b>	<b>115,2</b>
Samarqand shahri	8 901,0	118,2
Kattaqo'rg'on shahri	477,1	114,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	716,4	112,7
Bulung'ur	552,9	112,4
Jomboy	825,7	112,9
Ishtixon	730,0	112,7
Kattaqo'rg'on	807,2	112,5
Qo'shrabot	407,6	112,8
Narpay	676,9	112,2
Payariq	725,5	112,8
Pastdarg'om	1 258,3	112,3
Paxtachi	455,2	112,9
Samarqand	1 375,7	113,9
Nurobod	410,3	113,0
Urgut	1 389,6	113,7
Toyloq	908,5	114,5


**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining  
asosiy ko'rsatkichlari**  
*(yanvar-noyabr)*

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 074,6** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,8** % ni tashkil etgan.

*O'sish sur'ati,  
% da*



*Xizmatlar hajmi,  
ming so'm*



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 66-230-45-34**